

EKOLOGIK MADANIYATNING YOSHLAR HAYOTIDAGI O'RNI.

Farg'onan davlat universiteti botanika, biotexnologiya va ekologiya kafedrasи

4-kurs talabasi

Shukurullo Ergashev.

Annotatsiya: Maqolada ekologik globallashuv sharoitida yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning samarali yo'llari va ekologik tarbiyaga bo'lgan ehtiyoj haqida fikrlar bildirilgan. Ekologik tarbiyani ta'lim muassasalarida olib borilishi nafaqat tabiatni asrash, balki inson salomatligini saqlashda ham alohida ahamiyatga ega. Maqolada o'quvchi-yoshlarda ekologik ong madaniyatni singdirish, ekologik savodxonligini oshirish mavzusi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik madaniyat, ekologik ong, ekologik tarbiya, ekologik savodxonlik, ekologik ta'lim.

Аннотация: В статье представлены мнения о эффективных способах формирования экологической культуры у молодежи в условиях экологической глобализации и о необходимости экологического воспитания. Проведение экологического воспитания в учебных заведениях имеет особое значение не только для сохранения природы, но и для сохранения здоровья человека. В статье освещена тема внедрения экологического сознания у учащейся молодежи и повышения их экологической грамотности.

Ключевые слова: Экология, экологическая культура, экологическое сознание, экологическое воспитание, экологическая грамотность, экологическое образование.

Annotation: The article presents opinions on effective ways to develop ecological culture among young people in the context of ecological globalization and the need for environmental education. Conducting environmental education in educational institutions is of particular importance not only for preserving nature but also for maintaining human health. The article highlights the topic of

instilling ecological awareness in students and improving their environmental literacy.

Keywords: Ecology, ecological culture, ecological awareness, ecological education, ecological literacy, environmental education.

Kirish. Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar ekologik jarayonlarni avj oldirib yubordi. Bugungi kunda ekologik ta'lif va tarbiyaning mushtarak-mujassam, uzlucksiz, barcha uchun tushunarli tizimini yaratish muammosi ham dolzarb bo'lib turibdi. Kishilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash, ularning dam olishini, atrof-muhitni asrash borasidagi faoliyatini tashkil etish masalalari kun tartibida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ma'naviy-ma'rifiy muassasalar, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlikda ularni mustahkamlash, chuqurroq tahlil qilish vazifalarini bajaradi. Ekologik madaniyatni shakllantirishga mutassaddi muassasalar kishilarning tabiatni muhofaza qilish imkoniyatlarini namoyon etishlari uchun, zarur shart-sharoitlarni yaratish borasida, davlat yoki nodavlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikdagi faoliyati bu boradagi ishlarning samarasini oshiradi. Ekologik madaniyat insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy-ilmiy g'oyalarning majmuasi bo'lmasdan, ma'lum jamiyatda yashayotgan shaxslarning ruhiy xolatlari, hissiyotlari, kayfiyatlarini va intilishlarini ham qamrab olib, turli darajadagi ijtimoiy ong shakllarining ekologiya maqsad-manfaatlari doirasida mushtarakligini ifodalaydi. Bunda «Hissiyot insonning tabiiy borlig'i fakti bo'lmasdan, balki inson faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini mehnat jarayonida tabiatni o'z manfaatlari asosida o'zgartirishidir». Insonlar dastlab o'z ijtimoiy faoliyatlarini tabiatga sof nazariy munosabat sifatida boshlagan emas. Har qanday tirik mavjudot kabi eyish, ichishdan iborat tabiiy-biologik ehtiyojlarini qondirishdan boshlagan va qandaydir mavhum, bemaqsad faoliyatda bo'limganlar, aksincha, tabiatni mehnat qurollari bilan o'zgartirib, o'z ehtiyojini qondirganlar, ijtimoiy faoliyatini tashkil



qilganlar. Shunga ko'ra, jamiyat rivojlanishiga asos qilib olingen bazis insonning tabiatni o'zlashtirish uchun o'zgartirishdan iborat ishlab chiqarish munosabatlari majmuasidir. Lekin bunday holda insonning nisbatan mustaqilligi tabiatga amaliy munosabatining rivojlanishi natijasi emas. Shu bilan birgalikda «sof» nazariy faoliyatni ham taqozo qiladi, chunki insonning ijtimoiy mohiyati amaliy va nazariy faoliyatlarning dialektik birligida namoyon bo'ladi.

Ekologik madaniyat tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini chuqur anglagan holda unga zarar yetkazmay asrab-avaylashdir. Uning taraqqiyoti ekologik ta'lim-tarbiya hamda ekologik ma'lumotlarni aholiga yetkazish, targ'ibot tashviqot qilish bilan chambarchas bog'liq. Binobarin ekologik madaniyat zamirida ekologik ta'lim-tarbiya yotadi. U esa tabiatning muhofaza qilishning ilmiy asoslari uchun zarur bilimlarni chuqur o'zlashtirish jarayoni va natijasi hisoblanadi. Ekologik madaniyat yoshlarni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, ularga tabiat qonunlarini o'rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.[1]

Ekologik madaniyat – insonning tabiat va uning ne'matlariga ongli munosabati, ona zamin uchun tabiat muhofazasi borasidagi faol hayotiy nuqtai nazarning shakllanganligi. Aholining ekologik madaniyatini va atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishni shakllantirishga qaratilgan ushbu faoliyat butun insoniyat kelajagi xavfsizligining garovidir.

Ekologik madaniyat ham umum insoniy madaniyatning ajralmas qismi bo'lib, uning muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Shu bois har birinsonda o'zi yashab turgan uy, ko'cha, mahalla, qishloq va shaharni ifloslanishdan asrash, uni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, tabiiy maskanlarni asl holida saqlash va ularidan unumli foydalanish, yurtimiz tabiatini muhofaza qilish singari fazilatlarni shakllantirishda ekologik madaniyat hisoblanadi.

Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik dunyoqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog'liqdir. Agar bu masala oilada to'g'ri yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, uni maktablarda,

keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo'ladi. Ekologik ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash bog'chalar, maktablar, lisey, kollejlar, oliygohlarda mutaxassislar tomonidan olib borilishi maqsadga muvofiq. Aholining boshqa tabaqalarida esa O'zbekiston ekologik partiyasi va boshqa ko'ngillilar, tashkilotlar tomonidan targ'ibot ishlari yo'lga qo'yilishi mumkin. Ekologik ta'limning nazariy asosi - atrof muhit muhofazasiga oid ta'limni bog'cha, maktab, katta-kichik o'quv yurtlari, oliy o'quv yurtlarida ma'lum o'quv reja va dasturlari asosida olib borish hamda malakali mutaxassislar tayyorlashdan iborat. Yig'ilgan tajribalar umumlashtirilib bir pedagogik shaklga keltirilib o'quv dasturi darsliklari tuzilishi lozim. Oliy va o'rta maxsus ta'limga ega bo'lgan tarbiyachi, ekologik metodist, ekologik pedagog, ekologik instruktor, injenerekolog, ekolog-agroximik, ekolog-texnolog kabi mutaxassislar tayyorlanishi lozim. Ekologik ta'lim tarbiyani asosan, bog'cha va maktablarda amalga oshirish zarur. Bog'cha bolalarida avval ekologik ta'lim tushunchalari shakllantiriladi. 1-5 sinflarda esa, asosan, tabiatshunoslik darslarida o'qituvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya beriladi . Bunda ekologiyadan ilmiy tushunchalar maktablarda o'qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, fizika, ekologiya, matematika, geografiya, tarix kabi fanlarni o'qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga fakul'tetiv mashg'ulotlarda, darsdan tashqari to'garak yig'ilishlarida, ekskursiya davrida hamda o'zlariniig kundalik faoliyatları davomida muammolarni o'rgana boradilar.[2]

Xalqimizning ko'p ming yillik tarixi va boy madaniy merosi shundan dalolat beradiki, ajdodlarimiz o'z asarlarida, yaratgan manbaalarida ma'naviy-ekologik qadriyatlarga atroflicha e'tibor bergan. Bu borada yerni e'zozlagan, suvni muqaddas bilgan, bir yangi nihol ekmay turub, daraxt kesish yomon illat hisoblangan va tabiat bilan bog'liq tasavvurlari, qarashlarini yoshlar onggiga chuqur singdirganlar. Hammamiz yaxshi bilasiz, xalqimiz azaldan tabiatni muqaddas deb bilgan. Tuproqni, suvni, havoni, ostonasini pok saqlashga intilgan. Xalqimizda "Birni kessang, o'nni ek" degan dono maqol ham bejiz aytilmagan.

Oilada farzand dunyoga kelsa, unga atab nihol ekilgan. Afsuski, mana shu ezgu odatlar bugun deyarli yo'qolib ketdi".[3]

Ekologik tarbiya oiladan boshlanadi. Ekologik ta'lim va tarbiya bog'chadan oliy o'quv yurlarigacha uzlucksiz davom etishi lozim. Tabiatga mexr-insonlarga oqibatdir.[4]

Shaxsning ekologik madaniyati – bu tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik hissiyat, ehtiroslarning shakllanishi, faol hayotiy nuqtai nazarda turish, ekologik bilimga ega bo'lishdan iboratdir. Shuningdek, Ekologik madaniyat deganda tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvlaridir .[5, 6]

Shaxsning ekologik madaniyatini shakllantirishda ekologik qadriyatlar alohida ahamiyatga ega, ularga tabiatni asrab-avaylashga intilish, tashabbuskorlik, izchillik, mehnatsevarlik va ongli faollik kabilalar kiradi. Masalan, ekologik qadriyatning bir turi, ya'ni global, mintaqaviy va lokal ekologik muammolarni bilish yer, suv, energetik muammolar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, cho'llanish jarayoni, atmosfera havosining ifloslanishi kabi tushunchalar bilan chambarchas bo'gлиq. Jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning tabiatga ta'sir etish darajasi ham shunchalik ko'p bo'lar ekan. Aholi sonining tez o'sib borishi natijasida ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Ayniqsa, yer, suv, energetika, oziq-ovqat bilan ta'minlash haqidagi muamolar butun dunyo (global) muammolariga aylanib bormoqda.[7]

Ekologik ta'lim tarbiya, madaniyat BMT, YUNESKO va YUNEP ning diqqat markazidagi masaladir. Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun jaxon, aloxida davlatlar miqyosida turli tadbirlar o'tqazilmoqda. Har bir soha mutaxassis ekologik savodxon bo'lishi va o'z faoliyatida tabiatga zarar yetkazmasligi, ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga hissasini qo'shishi

lozimdir. O'zbekiston respublikasida ekologik ta'lismi va tarbiyani rivojlantirish soxasida ma'lum tadbirlar o'tqazilmoqda. Mamlakatimizda ekologik ta'lismi-tarbiyani amalga oshirishning uzlusiz konsepsiysi ishlab chiqilgan. Lekin bu borada kamchiliklar hali ko'p. Jumladan O'zbekiston respublikasining "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risidagi" qonunida ushbu masalaga kam o'rin berilgan. Ekologik axborot tizimi yaxshi shakillanmagan. Bu muammolar yaqin yillar ichida ijobjiy hal qilinishi lozim.[8] Ekologik madaniyat yoshlarni tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, ularga tabiat qonunlarini o'rgatishga, qolaversa, ishlab chiqarishni, texnika va fanni ekologiyalashtirishga xizmat qiladi.

Ekologik madaniyat orqali sog'lom turmush muhitini yaratish, rivojlanish va odamlar taraqqiyot ehtiyojlarini qondirish uchun qiziqishlariga va tabiiy o'zgartirish, xulq munosabati ifodalangan madaniy va ijtimoiy qadriyatlarni hisobga olish zarur. Ekologik madaniy qadriyatlар - bu tabiat ekotizimida yashash, ishlash va rivojlanish jarayonida odamlar tomonidan yaratilgan barcha qadriyatlardir. Ushbu maqolada, yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish va uning istiqbollari haqida fikr va mulohazalar yuritiladi. Ekologik madaniyat bu tabiatga imkoniboricha zarar keltirmaslik, tabiat va jamiyat taqdiri birligini tushunishdir. Yoshlarda tabiatdan uning boyliklariga zarar yetkazmazmagan holatda foydalanish kerakligini o'rgatish ekologik ta'lismi tarbiyaning asosi hisoblanadi. Bunday maqsadlarga erishda Oliy o'quv yurtlarida turli kasb egalari uchun alohida dasturlar, metodik qo'llanmalar yaratilgan bo'lib, ularda har bir mutaxassislik bo'yicha tabiatga salbiy ta'siri, atrof - muhit muhofazasi muammolari o'z aksini topgan bo'lishi zarur. Yoshlarda ekologik ta'lismi tarbiya masalariga chuqur yondoshishda maxsus ekologik ta'lismi tarbiya dasturi va metodik qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi.

Xulosa. Ekologik ta'lismi-tarbiya va madaniyatning asosiy maqsadi yoshlarning faqat shaxsiy ehtiyojlarini qondirishdan iborat emas, balki jamiyat manfaatlariga ham yo'naltirishni e'tiqod darajasiga ko'tarishdir. Chunki, har

qanday ekologik faoliyat faqat konkret shaxsning ehtiyojlarini emas, balki pirovardida jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilgandir. Tabiiy resurslarni o‘z ehtiyojlarimizga sarflashni qanchalik tejasak, insoniyat va tabiat orasidagi muvofiqlikni tiklashga shunchalik erishamiz. Yoshlarda ekologik ongi shakllantirish, ekologik ta’lim va tarbiyani rivojlanirish tabiatni himoyalash strategiyasining birdan-bir manbaidir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongi o‘zgartirmasdan turib, ekologik madaniyatni shakllantirib bo‘lmaydi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘quvchi va talabalarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Shuningdek, milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda Ona Vatanga sadoqat, mustaqilligimizni mustahkamlashga hissa qo‘shishga kamarbastalik ruhida tarbiyalashga alohida e’tiborni qaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘quvchi-yoshlar ongida ekologik madaniyatni shakllantirish . Ahmedova Dilfuza Mahammadovna, Rasulov Nuriddin Ergashaliyevich.
2. Рахимбаев.О.Д., Закиров.М.М. Влияние антропогенных изменений на экологические условия приаралья // “Ер қаъридан оқилона ва бехатар фойдаланишнинг рақамли трансформациялашдаги XXI аср таваккаллари, қийинчиликлар ва муаммолари” мавзусидаги халқаро илмий-техник анжуман материаллари тўплами- Тошкент, 2022
3. Shavkat Mirziyoyev raisligida 2-fevral kuni chiqindilar bilan ishslash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bo‘yicha 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishidan.
4. O‘zbekiston «Ekologiya xabarnomasi» jurnalni sonlari.
5. Qoriyev Mirzohid, Ubaydullayeva Muhlisa. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyanuvchilariga ekologik ta’lim va tarbiyani

kuchaytirishning zarurati xususida. Iqtidorli talabalar ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2021. – №3. – 304-309 b.

6 Vassiyev Elyor. Ekologik madaniyatni shakllantirish. [www.ipb.uz](http://www.ipb.uz/post).
<http://www.ipb.uz/post>.

7 . Raximbayev Otabek Davlatbayevich, Orolbo‘yi hududlarining antropogen omillar ta’siri ostida gidrogeologik sharoitlarning o‘zgarishi, международный научный журнал № 2(100), часть 1 «научный фокус» июня, 2023.

8. <https://lex.uz/docs/-107115>.